

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O'ZBEK
DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI**

Baxtiyorov Shaxrux G'ulom o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika insituti

3-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola Temuriylar davrida o'zbek xalqining shakllanishi va hayot tarzi haqida yozilgan. Amir Temur va Ilyosxo'ja bo'lib o'tgan "Loy jang" haqida va Sarbadorlar harakati va uning natijasi Temuriy shahzoda Husayn Bayqaro davrida ilm-fanning yuksalishi va soliq turlari Temuriylar davrida suyurg'ol tartibi va ma'daniyatning yuksalishi.

Kalit so'zlari: Amir Temur, Amir Husayn, "Loy jangi" Ilyosxo'ja, Sarbadorlar harakati, Suyurg'ol, soliqlar, ilm-fan, ma'daniyat, o'zbek, Chig'atoy, davlat boshqaruvi, Movarounnahr.

O'zbekiston davlatchiligi tarixining o'rta asrlar davridagi bosqichi buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir nomi bilan bog'liqdir. XIV asrning 40-yillariga kelib Chig'atoy davlati parchalanib, davlatning sharqiy qismi Sharqiy Turkiston va Yettisuvni o'z ichiga olgan Mug'uliston davlati tashkil topdi. Chig'atoy ulusiga nisbatdan barqarorlikni saqlay olgan Qozonxon (1336-1347y) o'limidan keyin davlat hududlari parchalanib, iqtisodiy vayronalik sari yuz tutib,

Amir Qozog'on (1347-1357y) davrida bu jarayon avj oldi. 1363 yilda Mug'uliston hokimi Tug'luq Temur vafot etgach Ilyosxo'ja Movraunnahrdan haydaladi. Ammo, ko'p o'tmasdan Movraunnahr ustiga yangidan yurishga tayyorgarlik boshlaydi va 1365 yilda qo'shin bilan Sirdaryo tomon yo'lga chiqadi. Bundan xabar topgan Husayn va Temur harbiy kuchlarini jangga tayyorlaydilar. Birlashgan kuchlar va Tug'luq Temur qo'shinlari o'ratasidagi jang 1365 yil 22 mayda Chinoz va Toshkent oralig'idagi qattiq yog'ingarchilik paytida bo'ladi va tarixda "Loy jangi"(Jangi loy) nomini oladi. Bu jangda Amir Temur qo'shini mag'lubiyatga uchraydi buning bosh sababi Husaynning jangdan chiqishi sabab bo'ladi va Amir Temur va Husayn Balxga chekinadilar. Endi Movrounnahr yana Ilyosxo'ja boshliq mug'ullar zarbasiga uchrash xavfi ostida qoladi va Ilyosxo'ja Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlnozoda va Abu Bakr Kalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadi. Mahalliy aholning vatanparvarlik namunalarini ko'rsatib qarshilik ko'rsatganliklari tufayli Samarqandni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari Movaurnnahrni butunlay tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Samarqandliklarning mo'g'ullar ustidan g'alabaga erishganligini eshitgan Amir Temur va Amir Husayn Mavrounnahrga yo'l olishib, Samarqand yaqinidagi Konigilda

sarbadorlar rahbarlari bilan uchrashdilar. Sarbadorlar harakatidan so'ng faqatgina Mavlonzodaning hoyoti saqlab qolindi. Amir Temur davrida davlat markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, ark begi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliq yig'ish, meros ishlari, askarlar moashi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash va saroy xarajatlari bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullangan.

Amir Temur davrida o'zgacha shakllangan o'zbek davlatchiligining 8 ta asoslariga izchil amal qilingan.

1. Davlat o'z vakolatini bajarmog'i uchun eng avvalo siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi zarur.
2. Davlat va jamiyatning yaxlitligi buzilmasligi kerak.
3. Davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, g'oyalar asosida boshqarmog'i lozim.
4. Boshqaruvning turli bo'g'inlarini, muvofiqlashtirib turuvchi ma'lum bir tizim shakllangan bo'lishi darkor.
5. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlatning diqqat markazida turmog'i kerak.
6. Fan va madaniyat ravnaqi tog'risida doimiy qayg'urish davlat ahamiyatiga molik qat'iy siyosat sifatida qaralmog'i lozim.
7. Har bir davr shart-sharoiti, tartiblarga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda hal etib borishi darkor.
8. Davlat boshqaruvichi kuchlar o'tmish, zamona va kelajakni teran taffakur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyatparvarlik va millatparvarlik ila anglamog'i kerak.

Amir Temur bu milliy davlatchilik asoslarini rivojlantirish bilan birga yangidan qo'shgan muhim to'qqizinchi asos, u ham bo'lsa jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va ularning manfaatlarini ta'minlashdir.

Temur davridagi ilm-fan, me'morchilik, san'at sohalari o'z davriga nisbatan yuqori darajada rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tardi. Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e'tibor berdi. Samarqandni poytaxt qilib olgach dunyoning turli joylaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan majidlar, madrasalar, maqbaralar qurildi. Hottoki g'ariblarga oziq-ovqat beradigan g'aribxonalar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron, Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy qad ko'tardi. Bu davrda nafaqat Hirot va Samarqand, balki Movarounnahr va Xurosondagi boshqa shaharlarda ham olimu-fuzola, shoiru-me'morlar bastakorlaru naqqoshlar guruhlarini to'plana

boshlaydi. Buxoro, Xorazm, Balx, Mashhad, Sheroz ham o'ziga xos madaniy markazlar rolini o'ynay boshlaydi. Ma'rifatparvarligi va aqilligi bilan nom chiqargan Shohruhning davrida asriy ilm-fan, madaniy an'analari qayta jonlana boshladi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyligi natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati yuksak pag'onaga erishdi. Mirok Naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyurasi san'at ham o'z faoliyatini shu yerdan boshlagan edi. Hirotlik va xurosonlik ko'plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlaydi. Shohruh hukmdorligi davrida zodagon Hoji Arslon Tarxon o'zining ma'rifatparligi bilan nom chiqargan edi. Temuriylar davrida Samarqand bir necha madrasalar bo'lib bular: Xonim, Feruzshoh, Shohmalik, Qutbiddin kabi madrasalar edi. Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Bu yurish natijasida u buyuk saltanat barpo etishga erishdi va 27 ta mamlakat va o'lkani bo'ysindirishga erishdi. Amir Temur qo'shinida qa'tiy tartib va intizom o'rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo'l-yo'riqlarini o'zi ishlab chiqardi. Uning harbiy iste'dodi Anqara yaqinidagi sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorqin nomoyon bo'ldi. Qo'shinning yuragi va qo'mondonlik o'zining barlos urug'i vakillari tashkil etardi. Amir Temur kuchli va markazlashgan davlat, ulkan saltanat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. U ona yurti Movarounnahr mo'g'ul istibdodini tugatdi, o'zaro parokandalik, nizo va fitnalarlarga chek qo'ydi, mamlakatda tanglik va inqiroz botqog'idan olib chiqdi, obodonchilik qurilish, bunyodkorlik ishlariga keng yo'l ochdi, madaniyat, ilm-fanni hayot tarzini yaratdi. Amir Temurning ulkan davlat barpo etishdagi faoliyati uning maqsad va rejalariga ko'ra ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich 1360-1386 yillarni o'z ichiga oladi, bu davrda Sohibqiron Mavrounnahrda markazlashgan kuchli davlat barpo etishga erishdi. Ikkinchi bosqich 1387-1404 yillarni o'z ichiga oladi, bu davrda Amir Temur mamlakat qudratini mustahkamlash payida bo'ldi. Sohibqironning davlat boshqaruvi tizimi qo'l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosida qurilgan bo'lsa-da, bu sohada olib borilgan siyosat o'rta asrlarda O'rta Osiya davlatlarida keng qo'llanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov.I.A. "Istiqlol va ma'naviyat" Toshkent. O'zbekiston, 1994y 27 bet
2. Axmedov.B "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari".T. O'qtuchi. 1991y 12-14 bet
3. Karimov.I.A. "Amir Temur faxrizmiz-g'uruzumiz" Toshkent. 1996y 43-44 bet
4. B.J.Eshov, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi II kitob" T. Donishmand ziyasi. 2020y 32-33 bet